Advances in Science and Humanities



Advances in Science and Humanities, 2026, 3–6

doi: 10.70728/human.v02.i06.001
Volume 02, Issue 06
ISSN: 3060-5393
Paper

PAPER

SOVET HOKIMIYATINING “MADANIY INQILOB” SIYOSATINING MAHALLIY AHOLINING TURMUSH TARZIGA TA’SIRI

Shermuhammadov Hasan[1,*]

[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

* shermuhammadov987@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada Madaniy inqilob siyosatining mohiyati va uning mahalliy aholining turmush tarziga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet davrida amalga oshirilgan savodxonlikni oshirish, yangi ta’lim tizimini joriy etish, diniy qarashlarga munosabatning o‘zgarishi hamda an’anaviy qadriyatlarning qay darajada o‘zgargani yoritiladi. Shuningdek, mazkur siyosatning ijobiy va salbiy jihatlari, jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘zgarishlar ilmiy asosda tahlil etiladi.

Key words: Nikoh va oila kodeksi, Qalinni bekor qilish to‘g‘risidagi dekret, Sho‘roi Ulamo, Sherali Lapin, Alsha ovuli, Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to‘g‘risidagi dekret, Maxfiy instruksiya.

Kirish

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan tub siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar mahalliy aholi hayotining barcha jabhalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, 1917 yilgi Oktabr to‘ntaruvidan so‘ng hududda yangi siyosiy tizim Sovet Ittifoqi hukmronligi o‘rnatildi. Bu davrda amalga oshirilgan eng muhim siyosiy-ijtimoiy jarayonlardan biri “madaniy inqilob” siyosati bo‘lib, u jamiyatning ongini, turmush tarzini va qadriyatlar tizimini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan edi.

“Madaniy inqilob” siyosati doirasida savodsizlikni tugatish, yangi ta’lim tizimini shakllantirish, diniy ta’sirni cheklash hamda an’anaviy ijtimoiy institutlarni qayta qurish kabi keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur jarayonlar orqali sovet hokimiyati yangi sotsialistik jamiyatni barpo etishni maqsad qilgan edi. Shu bilan birga, bu siyosat mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, diniy e’tiqodlari va turmush tarziga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo hududida asrlar

Compiled on: April 1, 2026.
Copyright:©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

davomida turli millat va elat vakillari istiqomat qilib kelgan. Ularning har biri o'ziga xos turmush tarzi, mentaliteti hamda milliy urf-odatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mazkur etnoslar o'rtasidagi umumiylik va mushtarak qadriyatlar ularning uzoq tarixiy davr mobaynida tinch-totuv yashashi hamda o'zaro hamkorlikni rivojlantirishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hudud Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilgach, mahalliy jamiyat hayotida sezilarli o'zgarishlar yuz bera boshladi. Xususan, imperiya ma'muriyati mahalliy ziyolilar, jumladan diniy ulamolarning jamiyatdagi nufuzini va aholiga ta'sirini cheklashga intildi. Biroq, mahalliy aholining qarshilik ko'rsatish ehtimoli sababli imperiya hokimiyati bu jarayonda keskin va ochiq aralashuvlardan tiyilib, ehtiyotkor siyosat yuritishga majbur bo'lgan. Keyingi bosqichda, 1917 yilgi voqealari natijasida hokimiyat tepasiga kelgan yangi tuzum tomonidan jamiyat hayotini tubdan o'zgartirishga qaratilgan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar aholining ijtimoiy va ma'naviy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, 1917 yil oxirida qabul qilingan Nikoh va ajralishlar to'g'risidagi dekret hamda 1918 yildagi Nikoh va oila kodeksi oilaviy munosabatlarni tartibga solishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi [1].

1921 yil 14 iyunda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya qo'mitasi tomonidan "Qalinni yo'q qilish haqida"gi dekret qabul qilindi. Ularning zamirida diniy nikoh davlat tomonidan tan olinmasligi e'lon qilindi [2]. Darhaqiqat, mazkur hujjatlar zamonaviy tushunchadagi oilaning shakllanishida va jamiyatda oila nufuzining oshishiga, o'zbek qizlarini voyaga yetmasdan turmushga chiqarish, ko'pxotinlilikning salbiy jihatlarini yo'q qilishga xizmat qildi. Ammo bu tadbirlarning milliy mentalitetni hisobga olmasdan, jadallik bilan ko'r-ko'rona amalga oshirilishi aholining ayrim noroziliklariga sabab bo'ldi.Alohida qayd etish lozimki, Turkistonda sovetlar davrida tub millatli xalqlarni yangi hokimiyatga, yangi tuzumga bo'ysundirishni asosiy va birinchi galdagi maqsad deb hisoblagan bolshevistik rahbariyat tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirib borgan. Bu borada siyosiy hokimiyat organlari o'zining amaliyotini eng avvalo, xususiy mulkchilikni tugatish, dehqonlar va ishchilar bilan milliy ziyolilarni qarama-qarshi qo'yish, ziyolilarni tabaqalashtirish va milliy qadriyatlarni, milliylikni saqlashga intilayotganlarni feodal qoloqlikni himoya qiluvchilar yoki burjua millatchilar sifatida qatag'on qilish, milliy jamoat tashkilotlarini yopishdan boshlashgan. Turkiston mintaqasi tub aholisining dunyoqarashi, turmush tarzi nafaqat tarixan shakllangan milliy qadriyatlar bilan, balki ko'p jihatlari bilan islom qoidalari, shariat va urf-odat (ko'chmanchi aholida) me'yorlari bilan belgilanib kelgani ma'lum.

Arxiv manbalarida qayd etilishicha, 1920 yilda istiqlolchilik harakati davom etayotgan vaqtda, bolshevistik partiyaning mahalliy organlari va sovet idoralari tub aholining madaniy-ma'rifiy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi turli tashkilotlarni, jamiyatlarni ma'muriy yo'llar bilan yopishi va ular egallagan binolarini hech bir asossiz musodara qilishi ommaviy tus olgani xalqning noroziligini kuchaytirgan edi. Shu munosabat bilan mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadida Turkiston Kompartiyasi MK mas'ul kotibi N. To'raqulov, Maorif xalq komissarining o'rinbosari F. Olimov, milliy ishlar bo'yicha xalq komissarining o'rinbosari T. Bogod barcha xalq komissariatlariga, xalq maorifi bo'limlariga va boshqa sovet idoralariga maxsus xat yo'llab, mahalliy millatlarga qarashli madaniy muassasalarni, maktablarni hamda aholining tirikchiligiga xizmat qilayotgan tashkilotlarni saqlashga da'vat qilishgan [3].

Yana bir misol: "Sho'roi Ulamo" tashkilotining Toshkent sho'basi raisi Sherali Lapinning barqaror siyosiy mavqega ega bo'lmaganligidan foydalanib, bolsheviklar partiyasi va hokimiyat rahbariyati uni Turkiston Muxtoriyatini hamda jadidlarni qoralashga undashgani ma'lum. Shuni ham qayd etish kerakki, 1920 yilda, ya'ni istiqlolchilik harakati avj olganda, shu harakatda qatnashayotgan Yosh xivaliklarni badnom qilish va umuman bu harakat mustaqillik uchun emas, balki ruslarga qarshi millatchilar harakati ekanligini namoyish etish maqsadida turkmanlar yashovchi Alsha ovulida topilgan va №10 bronopoyezdda Yangi Buxoro (Kogon) temir yo'l stansiyasiga keltirilgan xat rus tiliga tarjima qilinib, qizil askarlar orasida o'qib eshittirildi. Unda shunday deyilgan edi: "Barcha musulmon birodarlarga. Biz,

musulmonlar, Xudo yakka ekanligini bilishimiz darkor. Agar biz allaqachondir yagona Allohni tan olsak edi hozir nasroniylardan qutulgan bo‘lar edik... Agar biz Allohga itoat qilsak, eski yo‘llarni hurmat qilsak,qadrli birodarlar, unda biz hech qachon qashshoq bo‘lmaymiz va la’nati „tovarishlar’’ yakson bo‘ladi. Turkmanlar bir-biri bilan adovatda bo‘lib, bir-birini talon-taroj qilib, o‘ldirib turdilar va oqibatda ruslarning qo‘liga tushdilar. Alloh va payg’ambarning yana bir dushmani- jadidlar ta’limotidir, agar sizlar bu yangi ta’limotga ishonsangizlar, unda sizlar azob chekasizlar va yuzingiz qora bo‘lur. Shuning uchun eski ta’limotga rioya qilinglar” [4].

Shundan ko‘rinib turibdiki, diniy qadriyatlar aholining shu darajada ongiga singib ketganki, xattoki, keskin qarshiliklarga sabab bo‘ldi. O‘sha davrlarda jadidlar harakati ham ancha faollashib qolgan edi. Afsuski ularning harakat va tashviqotlariga faqatgina dushman hukumati qarshi chiqmadi, balki eski hurofotni yoqlab chiquvchi tuzum tarafdorlari ham ularga faol qarshiliklar ko‘rsatdi. Yuqoridagi xatdan shuni bilishimiz mumkinki, Qur’on, Shariat yoki odat biror marta ham zikr etilmaganligi va jadidlar Ollohni inkor etmaganligini bilganimiz uchun ham, mazkur xatni fitna qo‘zg’atish maqsadida qizil qo‘shindan birorta siyosiy komissar yoki besavod mulla yozgan. Chunki jadidlarimizning diniy sohadagi ilmlari ham e’tirof etgulik darajada yuqori bo‘lganligiga aminmiz. Sovetlarning keying faoliyatlari ham bevosita mahalliy xalqning turmush tarzi hamda qadriyatlariga zarba berdi, desak mubolag’a bo‘lmaydi.

RSFSR Adliya xalq komissarligining “Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish haqida”gi dekretini hayotga tatbiq qilish tartibi to‘g‘risidagi instruktsiyasidan foydalanib, zudlik bilan shu dekretni bajarishga kirishish topshiriladi. Bunda mazkur dekretni Turkiston respublikasining yevropacha, xususan, nasroniylar, katoliklar, lyuteranlar, protestantlar, armani-gregorianlar hamda yahudiylar – yevropalik va mahalliy yahudiylarga nisbatan qo‘llash zarurligi aytildi. Qarorda yozilishicha, musulmonlarning ehromlari va masjidlariga bu farmoyishning daxli yo‘q. Ular haqida maxsus farmoyishlarni kutish kerak [5]. Shundan ham bilishimiz mumkinki, RSFSRda qabul qilingan barcha dekretlar ham bizga mos kelavermagan.

Bizga ma’lumki, dastlab sovet hokimiyati islom diniga, musulmon aholisiga nisbatan siyosatini ehtiyotkorlik bilan yuritishga harakat qilgan. Negadir “maxfiy” deb belgilangan Instruktsiyada (1925 yil 21 avgustda Butun Ittifoq Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi riyasati tomonidan tasdiqlangan), Islom diniga e’tiqodli Sharq xalqlari orasida musulmon ta’limotini o‘qitish tartibi batafsil keltirilgan. Bu hujjatda qayd etilishicha, Sharq xalqlarining ayrim guruhlarining madaniy qoloqligini hisobga olib, Butun Ittifoq Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining rayosati musulmon ta’limotini masjidlarda o‘qitishga ruxsat berdi [6].

Bu degani barcha holatlarni shunchaki o‘z holiga tashlab qo‘ydi degan xulosani bermaydi. Ya’ni o‘ziga xos nazoratni ta’minlash maqsadida Turkiston ichki ishlar va xalq maorifi xalq komissarliklari quyidagilarni taklif qilishgan:

1.Musulmon ta’limoti faqat masjidlarda va har bir holda uezd yoki viloyat ijroiya qo‘mitasining tegishli ruxsati bilan, avvalo, 14 yoshga etgani haqida guvohnomani taqdim qilganlarga, ikkinchidan, birinchi darajali maktabni bitirgani haqida tegishli guvohnomani taqdim qilganlarga o‘qitilishi mumkin.

Istisno: diniy ta’limotni sovet maktabida, jumladan, turkiy va boshqa sharqiy elatlar maktablarida, “Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish” to‘g‘risidagi dekretning aniq asosiga binoan o‘qitishga yo‘l qo‘yilmaydi. 2. Musulmon ta’limotidan dars berishga ruxsat olish uchun 3 nusxadagi ariza 1-moddada zikr etilgan Ijroqo‘mlardan birining ma’muriy bo‘limiga, vaqf diniy muassasaning mulkini boshqarish bo‘yicha vakili, ya’ni masjiddan foydalanish to‘g‘risida bitimga qo‘l qo‘ygan shaxs tomonidan topshiriladi. 3. Ichki ishlar va xalq maorifi xalq komissarliklarining mahalliy idoralari: a) masjidlarda diniy ta’limot niqobi ostida umumta’lim fanlarini o‘qitish mosligi nazorat qilinishi lozim; b) diniy ta’lim faqat maktab mashg‘ulotlaridan bo‘sh kunlarda o‘qitilishini kuzatish zarur; v) diniy ta’lim o‘qitilayotgan binolarni kerakli tozalikda va sanitariya shartlariga javob beradigan holatda bo‘lishini nazorat qilishi kerak. Ichki ishlar xalq komissariatining ma’muriy

idoralarining burchi diniy ta'limot bo'yicha o'qituvchilar haqida aniq hisob va ma'lumotlarga ega bo'lishdir [7]. Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar sovet hokimiyati dinga, ruhoniylarga qarshi olib borgan siyosatida diniy qadriyatlarni poymol qilish masalasiga alohida urg'u berganini ko'rsatadi. RKP(b)ning O'rta Osiyo byurosi ham dinga qarshi kurash borasida musulmon diniy idoralarda va dindorlarga qat'iylik va ayni vaqtda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligini qayd etgan edi [8].

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sovet hokimiyatining "Madaniy inqilob" siyosati mahalliy aholi hayoti va milliy-diniy qadriyatlarini keskin o'zgartirishga qaratilgan edi. Mahalliy urf-odatlar, diniy marosimlar va madaniy an'analar cheklanishi yoki taqiqlanishi orqali sovet hokimiyati o'z g'oyaviy nazoratini mustahkamlashga harakat qildi. Bu jarayon natijasida milliy va diniy qadriyatlarning jamiyatdagi roli pasaydi, ziyolilar va oddiy aholi orasida norozilik yuzaga keldi, lekin shu bilan birga yangi sovet madaniyati va zamonaviy turmush tarzini singdirish imkoniyati ham yaratildi. Shu tariqa, "Madaniy inqilob" mahalliy jamiyatda ma'naviy o'zgarishlar va ijtimoiy transformatsiya jarayonini tezlashtirgan, ammo ko'pincha majburiy va qarama-qarshi reaktsiyalar bilan kechgan siyosiy tajriba bo'ldi. Chunki, davlat jamiyatda qaysidir tuzumni o'zgartirishga harakat qilib, qanaqadir islohotlarni amalga oshirgudek bo'lsa, albatta bu dastavval keskin qarshiliklarga uchraydi hamda bu holat ko'plab qurbonliklarni ham keltirib chiqarishi kishini hayratga soladigan holat emas, chunki biz buni 70 yildan ziyodroq vaqt davomida boshimizdan o'tkazib keldik.

Adabiyotlar

1. Раскрепощение женщин Киргизии Великой Октябрской социалистической революцией (1917-1937г.г) – Сб. документов и материалов. – Фрунзе, Кыргызстан, 1973, – Б. 31.
2. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. – Ташкент, 1975, – Б. 75-79.
3. O'z MA, 39-fond, 1-ro'yxat, 655-ish, 25-varaq
4. O'z MA, 17 fond, 1-ro'yxat, 277-ish, 19-varaq
5. O'z MA, 34 fond, 1-ro'yxat, 646-ish, 22-varaq
6. O'z MA, 837 fond, 26-ro'yxat, 5-ish, 112-varaq
7. O'z MA, 837 fond, 26-ro'yxat, 5-ish, 113-114-varaqlar.